

## IX. KICHIK TADBIRKORLIK


Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Ro‘yxatga olingan kichik korxonalar va mikrofirmalar 2025- yilning 1- aprel holatiga 65,0 mingtani tashkil etdi.


2025- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) soni jami 36 169 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 1 897 tani tashkil etdi.

2025- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan kichik va mikrofirmalarning eng ko‘pi Zangiota tumanida - 4 480 tani (jamiga nisbati 12,4 % ni), Qibray tumanida – 3 176 tani (jamiga nisbati 8,8 % ni), Toshkent tumanida - 2 647 tani (jamiga nisbatan 7,3 % ni) tashkil etdi

### Kichik biznes subektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ma’lumotlar



**Yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning sohalar kesimida soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), birlikda**



Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir. Shunda, 2025- yil yanvar-mart oylarida sog‘liqni saqlash sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subektlari soni 2024- yilning mos davriga nisbatan 1 554 tadan 1 897 taga (o‘shish 343 taga), yashash va ovqatlanish bo‘yicha – 156 tadan 197 taga (o‘shish 41 taga), savdo sohalarida 587 tadan 776 taga (o‘shish 189 taga) ko‘paydi.

**2025- yil yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi  
va tarmoqlardagi ulushi**  
*(jamiga nisbatan %da)*

**2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik  
subektlari tomonidan:**

- yalpi hududiy mahsulotda yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi 15 679,1 mlrd so‘mni tashkil qilib, ulushi 50,1 % ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida 49,6 %)ni tashkil qildi;

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6 052,5 mlrd so‘mni, ulushi 26,0 %ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida 22,0 %)ni tashkil qildi;

- qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmi 5 726,2 mlrd so‘mni tashkil qilib, ulushi 91,9 % ga (2024- yilning yanvar-mart oylarida 91,9 %) to‘g‘ri keldi;

- investitsiyalar hajmi 9 497,6 mlrd so‘m miqdorida bo‘lib, ulushi 58,9 %ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida 49,7 %)ni tashkil qildi;

- 5 159,4 mlrd so‘mlik qurilish-pudrat ishlari bajarildi va ulushi 78,6 %ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida 86,1%)ni tashkil qildi;


- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmi 7 214,7 mlrd so‘m miqdorida bo‘lib, ulushi 86,0 %ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida 85,5 %)ni tashkil qildi;

- xizmatlar umumiy hajmining 10 967,7 mlrd so‘m miqdorida bo‘lib, ulushi 72,7 %ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida 70,2 %)ni tashkil qildi;

- 132,9 mln. AQSh dollari miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport ulushi 32,0 %ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida 34,9 %)ni tashkil qildi;

512,2 mln. AQSh dollari miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import ulushi 60,0 %ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida 58,9 %)ni tashkil qildi.

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar)  
umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi**  
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



**Kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning  
asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da**

	Sanoat	Qishloq xo'jalik	Inves- titsiya	Qurilish	Savdo	Xizmat	Eksport	Import
<b>Jami viloyat</b>	<b>26,0</b>	<b>91,9</b>	<b>58,9</b>	<b>78,6</b>	<b>86,0</b>	<b>72,7</b>	<b>32,1</b>	<b>60,0</b>
<i>shaharlar:</i>								
Nurafshon	9,7	99,8	78,9	95,9	53,1	50,7	82,3	86,7
Olmaliq	1,7	99,8	16,0	7,3	88,2	69,4	3,5	12,5
Angren	22,8	77,4	82,6	77,2	88,8	65,7	49,6	29,3
Bekobod	3,5	99,9	37,5	99,0	82,2	76,6	43,5	18,1
Ohangaron	28,1	99,8	91,6	78,6	91,8	66,7	70,6	54,6
Chirchiq	37,0	99,8	43,8	93,2	73,6	68,1	15,3	76,7
Yangiyo'l	74,3	98,9	85,3	79,9	92,3	81,0	97,6	77,0
<i>tumanlar:</i>								
Oqqo'rg'on	98,6	99,5	93,8	100,0	97,7	81,2	87,4	100,0
Ohangaron	8,4	89,5	89,0	100,0	92,7	76,2	16,4	31,1
Bekobod	53,7	99,2	92,2	99,1	95,1	76,1	99,0	100,0
Bo'stonliq	20,5	98,5	77,0	87,8	72,9	61,0	19,6	48,5
Bo'ka	81,7	99,2	99,0	98,0	93,4	81,0	100,0	99,4
Quy Chirchiq	58,0	92,9	67,6	98,5	94,5	66,5	41,3	67,9
Zangiota	91,0	97,6	53,1	99,3	81,5	61,4	75,4	94,9
Yuqori Chirchiq	67,6	97,0	98,7	95,0	83,8	73,5	36,7	79,0
Qibray	25,6	90,3	72,0	82,9	91,0	60,5	94,8	65,4
Parkent	82,5	98,1	89,4	93,8	95,5	80,3	73,5	93,3
Piskent	19,5	88,1	7,4	100,0	91,5	71,2	16,7	5,0
O'rta Chirchiq	43,4	86,4	76,8	100,0	96,7	77,9	86,0	91,7
Chinoz	76,7	98,7	64,4	99,4	93,7	68,4	66,9	40,5
Yangiyo'l	44,4	57,0	41,5	96,2	89,8	76,3	36,6	57,1
Toshkent	79,7	97,7	96,7	99,5	87,7	77,0	68,8	89,4